



## O‘ZBEK TILIDAGI ALLA MATNLARIDA METAFORALAR

**Sulaymonova Zebiniso G‘ayrat qizi**

*Namangan davlat universiteti doktoranti*

Alla matnlari milliylikni, tarixni, xalqning ruhini ifodalab, ularni bolaga singdirish vositasidir. Zero, har qanday shaxsning, irq-u e‘tiqodi, zamin-u zamonidan qat‘i nazar milliy-ruhiy mag‘zini ona tili tayin va ta‘min etadi [1]. Alla matnlarida qo‘llangan metaforalarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish madaniyatimiz va tilimizning serjiloligini anglashga yo‘l ochadi.

Tilshunoslikka metafora ritorika san‘ati orqali kirib kelgan bo‘lib, antik sinkretizm davridagi “estetik-puristik” yondashuv asosida unga estetika va tasviriy (jozibador) nutq vositasi sifatida qaralgan [2]. “Metafora” atamasi ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qo‘llangan (m.a. 383-yil) [3]. Kvintilian metaforaga tabiat in‘omi deb qaragan va “hech bir predmet belgilanmay qolmasligiga ta‘sir ko‘rsatadi”, deya xulosa bergan [4]. Sitseron metaforaga tilda yetishmovchi ma‘nolarni shakllantirish usuli sifatida yondashgan va o‘xshashlik asosida amalga oshadigan ko‘chim “tildagi so‘zning tegishli tushunchasi bo‘lmaganda kuzatiladi”, deya fikr bildirgan [4].

V.A.Maslovaning fikricha, metafora o‘zida “... fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir”[5].

Tilshunos olim N.Mahmudov ham metaforaning sinestetik turini ajratadi va shunday ta‘riflaydi: “Sinestetik metaforalar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro zid, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lishi ham mumkin. Bunday g‘ayriodatiy birikmalar “oksyumaron birikmalar” deb ham yuritiladi (mas. *Yaxshidur achchiq haqiqat lek, shirin yolg‘on yomon.* – E.V)”, deb yozadi [6]. Atoqli tilshunos olim tomonidan izoh berilgan metaforaning bu turi alla matnlarida ham uchraydi.

*Alla, alla, ahdi bor, alla,  
Uyquning ham vaqti bor, alla.  
Alla aytgan onangni, alla,  
Qop-qoraygan baxti bor, alla.*

*Qop-qoraygan baxt* jumlasini sinestetik metaforani yuzaga chiqarmoqda. *Baxt* va *qop-qora* so‘zlari semantik jihatdan nomutanosib so‘zlardir. *Baxt* insonning yorug‘ va quvonchli onlari bilan bog‘liq bo‘lib, zulmat va mavhumlikni ifodalaydigan orttirma darajadagi *qop-qora* so‘zlarining bitta tushunchani yoritish uchun xizmat qilayotgani sinestetik metafoni hosil qilmoqda. Alla matnining davomini ko‘rsak, *qop-qora baxtning* sababi oydinlashadi:

*Kundoshimning yo‘g‘ida, alla,  
Qalayi erdi kovushim, alla.  
Kundoshligi qurisin, alla,  
Balolarga qoldi boshim alla.*





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

D.Xudayberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat

kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarini namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o'xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi [7]. Alla matnlarida farzand ma'nosini anglatuvchi leksemalar eng ko'p metaforizatsiyaga uchragan so'zlar hisoblanadi. Alla matnlari onaning mehr-muhabbatini ifodalovchi va uni so'z orqali farzandga yetkazish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun onalar alla matnlarida dunyoda eng qadrlil sanalgan nomlar bilan farzandiga murojaat qiladi. Ba'zi alla matnlarida metaforizatsiyaga uchragan so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilayotgani sezilmaydi. Bu holat o'zbek tili foydalanuvchilarining lisoniy xotirasida tayyor holatda saqlanishi va qo'llanilishi bilan bog'liq.

**Qo'zjonim** qo'ylar bo'lgay,

Yig'naganim to'ylar bo'lgay.

Yongan chirog'im so'nmagay.

Yoqqan chirog'im so'nsa-so'nsin,

**Qo'zjonim** o'lmasin,

Alla, **jonim**, alla,

Alla, **qo'zim**, alla.

Mazkur alla matnida *qo'zjonim*, *jonim* so'zlari farzand ma'nolarini assotsiatsiyalaydi. Bolani *qo'zi*, yanada erkalab *qo'zichoq* so'zi orqali ifodalash o'zbek tili badiiy va so'zlashuv uslubida keng uchraydi. Bolaning yuvoshligi, yoqimtoyiligiga urg'u beriladi va o'zbek tili foydalanuvchilari aynan shu xususiyatlarni *qo'zichoqda* ko'radi. O'zbek tilida "*Qo'y og'zidan cho'p olmagan*" iborasi va "*Qo'yday yuvosh*" o'xshatishlari faol qo'llanadi. *Qo'yday yuvosh* – tezda qizishib ketmaydigan, keskin, qizg'in harakatlarga moyil bo'lmagan [8]. Tadqiqotlarda hayvon nomlari ko'proq inson tabiatini, o'simlik nomlari tashqi ko'rinishini ifodalash uchun ko'chadi, deya ma'lumot beriladi [9]. **Jonim** so'zining "O'zbek tili izohli lug'ati"da 14 ta ma'nosi berilgan bo'lib, ma'nolar orasidagi "Eng yaqin, sevikli kishilarga murojaatda so'zlovchining ularga yaqin munosabatini ifodalaydi, begonalarga esa hurmat yoki xushomadni bildiradi. *Jonim, dedim qulog'iga, ohista, jon, dedi. Qo'shiqlar*". O'zbek madaniyati vakillari tomonidan bu so'zlarning "bola" ma'nosini ifodalab kelayotgani qiyinchiliksiz va me'yoriy holat sifatida qabul qilinadi va ma'no ko'chishi yuz berayotgani sezilmaydi.


Alla matnlarining har bir misrasida farzandni aynan bir tilga xos bo'lgan milliylik va madaniylik xususiyatlarini tashuvchi so'zlar bilan atash keng kuzatiladi.

*Yuzginamning qizilisan, alla,*

*Tilginamning uzunisan, alla.*

*Armonimning po'stagida umr bo'yi*

*Urvog'imsan, tuz-unimsan, alla.*



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

Misoldagi alla matnida soʻz birikmasi va soʻz shaklidagi metaforalar qoʻllangan boʻlib, ular *yuzginamning qizili, tilginamning uzuni, urvogʻim, tuz-unim* soʻzlari bilan ifodalangan. Oʻzbek madaniyatida farzandsizlikka katta musibat sifatida qaraladi. Farzand avlodlarni davom ettiruvchi boʻlib, insonning nasl qoldirish kabi eng asosiy vazifalaridan birini bajarishi uchun imkoniyatdir. Alla matnida farzandga *yuzginamning qizili* deya murojaat qilinmoqda. Sharq xalqlari madaniyatiga asosan, qizil yuzli insonga sogʻlom, qorni toʻq shu bilan birga, moddiy jihatdan boy deb qaralgan. Qizil yuz sogʻlomlik alomati boʻlsa, oq-sariq rang kasallik ifodasidir. Shuningdek, farzand tarbiyasining oʻta masʼuliyatli ekani, ularning qanday insonligiga qarab otanonaning xizmatlari baholanishi, or-nomusi ekanligi maʼnolarini ham assotsiatsiyalaydi. *Tili uzun* iborasi koʻp qoʻllaniladigan frazemalardan boʻlib, frazemalarning izohli lugʻatida quyidagicha izohlangan: **Til(i) uzun kimning**. Har qancha gapirsa haqi bor. Antonimi: **til(i) qisiq** [10]. Asosan nonning yoki boshqa predmetlarning kichik boʻlagini anglatuvchi urvoq soʻzi farzand maʼnosini bildirib kelmoqda. Inson hayotida muhim oʻrin tutuvchi isteʼmol mahsulotlaridan boʻlgan tuz va un soʻzlari ham farzand maʼnosini ifodalab kelmoqda. Kuzatishlarimiz natijasi shuni koʻrsatadiki, metaforalar milliy dunyoqarash bilan bogʻliq boʻlib, biror narsani ikkinchi bir narsa yoki shaxsga oʻxshatish orqali uning oʻxshatilayotgan obyektga munosabati va bahosi ham ifodalanar ekan. Oʻzbek tilidagi alla matnlarida farzand maʼnosini ifodalash uchun insonning taʼna aʼzolari, eng zarur isteʼmol mahsulotlari, milliy mentalitetimizda qadrlanib sanalgan hayvonlar, qushlar, eng nafis oʻsimliklar, yil fasllari, vaqt maʼnosini bildiruvchi soʻzlar, umuman olganda, ijobiylik maʼnosini ifodalaydigan soʻzlardan foydalanish keng uchraydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент, 2012. – Б.15
2. Лагута О. Н. Метафорология: теоретические аспекты / Новосибир. гос. ун-т – Новосибирск, 2003.
3. Барышников П.Н. Миф и метафора: опыт межпарадигмального анализа. Автореферат дисс. по – 09.00.01. (Онтология и теория познания). – М., 2008
4. Античные теории языка и стиля. – М., 1936; Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. – Санкт-Петербург Наука, 1993.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – Б. 91.
6. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти.– Тошкент, 2009. 2-нашр – Б. 80
7. Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2015. – Б. 18
8. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б. 309
9. Махмараимова Ш. – Тошкент, 2019. – Б. 17
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978. – Б. 230

